



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



Ijtimoiy soha obyektlarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarini tashkil etish

Samira Yakubova

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, PhD

Yozishmalar uchun electron pochta: yasamira337@gmail.com

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqt: 16.11.2023
Qabul qilingan vaqt: 26.11.2023

Tayanch so'z va iboralar davlat-xususiy sheriklik, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari, davlat-xususiy sheriklik loyihalari, ijtimoiy loyihalar, SWOT tahlil, davlat ishtiroki, xususiy sektor.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy soha obyektlarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarini tashkil etish masalalari o'rganilgan bo'lib, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari bo'yicha tadqiqotchilarning mulohazalari yoritilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining SWOT tahlili, davlat-xususiy sheriklik bo'yicha mavjud qonunchilik hujjatlari, davlat-xususiy sheriklik bo'yicha ijtimoiy loyihalar bo'yicha ko'rsatkichlar tadqiq qilingan. Davlat-xususiy sheriklik amaliyoti bo'yicha olib borilgan tahlillar asosida ilmiy xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Organizing public-private partnership practices in social sector objects

Samira Yakubova

The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan, PhD

Corresponding author: email: yasamira337@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 16.11.2023
Accepted: 26.11.2023

Key words: public-private partnership, public-private partnership relations, public-private partnership projects, social projects, SWOT analysis, public participation, private sector.

Abstract

This article studies the issues of organizing public-private partnership practices in social sphere objects and approaches of researchers on public-private partnership relations are highlighted. Moreover, SWOT analysis of public-private partnership projects, existing legislative documents on public-private partnership, indicators of public-private partnership social projects are reflected. Scientific conclusions and proposals are formed on the basis of the analysis conducted on the practice of public-private partnership.

Kirish

Bugungi kunda har bir mamlakatda iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birga ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash orqali aholiga qulay sharoitlar yaratib berish davlat oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Moliyalashtirish, samarali boshqaruv, loyihani ishlab chiqish va uni amalga oshirish kabi jarayonlarni har doim ham davlat yakka tartibda samarali boshqara olmaydi. Shu boisdan xalqaro amaliyotda davlatlar tomonidan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan foydalanishga harakat qilinadi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari

infratuzilmani yaxshilash va iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim vositaga aylanmoqda. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari yo'llar, aeroportlar va portlar qurilishi, elektr energiyasini ishlab chiqarish, suv va qattiq chiqindilarni qayta ishlash kabi infratuzilmalarda keng qo'llanmoqda va o'zining samarasini ko'rsatmoqda. O'zbekiston amaliyotida ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, ishga tushirish va texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish bilan bog'liq qator muammolar yuzaga kelgan. Xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xizmatlar sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirish va mavjud loyihalar samaradorligini ta'minlashda

hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar saqlanib qolmoqda. Shu boisdan ijtimoiy soha obyektlarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarini tashkil etish masalalarini o'rghanish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari bo'yicha bir qancha xorijiy va mahalliy olimlar izlanishlar olib borgan. "Ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish, qurish va boshqarishda foydalanishi mumkin bo'lgan davlat idorasasi va xususiy korxona o'tasidagi hamkorlikni o'z ichiga olgan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) shartnomalariga ko'plab mamlakatlar qiziqish bildirmoqda" [1]. Chunki davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ijobiy jihatlarini iqtisodiyotni rivojlantirishda hamda ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashda qulay moliyalashtirish shakllaridan biri hisoblanadi.

J. Zeng o'z tadqiqotlarida davlat infratuzilmasini rivojlantirish uchun xususiy investitsiyalarni jalg qilish niyatini bildirgan davlat-xususiy sheriklik bozorida davlat mulkining taqsimlanishi tartibini tushuntirishga harakat qilgan [2]. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlaridan davlat o'zining funksiyalarini amalga oshirishda foydalanish samaradorlikka erishishda yordam qiladi.

Ch. Raghutla va Y. Kolati "davlat-xususiy sheriklik munosabatlari bu davlat va nodavlat tomonlar o'tasidagi ixtiyoriy hamkorlik munosabatlari bo'lib, bunda barcha tomonlar umumiylar yoki muayyan vazifaga erishish uchun birlgilikda ishlaydi hamda risklar, mas'uliyatlar, resurslar va foydalarni bo'lismishadi" [3], deya fikr bildirgan.

"Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida davlat va xususiy sektor birlgilikda moliyalashtirishdan foyda olishlari lozim" [4]. Aynan foyda olish imkoniyatining oshishi davlat va xususiy sheriklik munosabatlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

V. Krepl boschchiligidagi mualliflar jamoasining fikricha, "davlat-xususiy sheriklik (DXSh) munosabatlarda qaror tasodifiy qabul qilinishi mumkin emas, mazkur qaror ilmiy asoslangan bo'lishi lozim. Qaror qabul qilingandan keyin oldini olish mumkin bo'lмаган xatolarni kamaytirish uchun DXSh munosabatlari samarali mezonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu mezonlar ko'plab tadqiqotlarda o'rganilib, mezonlar huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlarga qarab mamlakatlar kesimida farq qilishi mumkin. Shu sababli DXSh qarorlarini to'g'ri shakllantirish mamlakatdagagi shart-sharoitlari va omillarga bog'liq" [5]. Mamlakatdagagi umumiqtisodiy muhit va yaratilgan shart-sharoitlar davlat-xususiy sheriklik amaliyotini rivojlantiradi.

S. Elmirzayev va N. Shavkatov ilmiy izlanishlarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining xorij tajribasini o'rgangan. "Mamlakatimizning iqtisodiy o'sishida to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan asosiy omillar transport, energetika, kommunal xizmatlar kabi infratuzilma tarmoqlarining yetarlicha rivojlanmaganligidir. Shuningdek, ushbu tarmoqlarda infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha zarur investitsion loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarning yetishmasligi va

zamonaviy tehnologiyalarni jalg etish darajasining pastligi asosiy muammolardan hisoblanadi. Bunday muammolarni hal etishda dunyo amaliyotida eng samarali usullardan biri davlat-xususiy sheriklik asosida investitsion loyihalarini amalga oshirish hisoblanadi" [6]. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining infratuzilmani rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati mazkur amaliyotning kengaytirish zaruratin ko'rsatadi.

A. Botirov va boshqalar davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining o'ziga xos jihatlarini yoritgan. "Xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiyalarni jalg qilish bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda davlat o'z funksiyalarini bajarish davomida ijtimoiy sohani ham qo'llab-quvvatlashi va rivojlantirishi zarur. Shu sababli savlat-xususiy sheriklik amaliyoti xalqaro darajada tadqiq qilinmoqda. Mamlakatimizda ham davlat-xususiy sheriklik amaliyotini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda va bu orqali xususiy sektordan investitsiyalar jalg qilish, mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish kabilarga erishish mumkin" [7]. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik loyihalari qamrovini kengaytirish lozim.

A. Mengnarov fikricha, "bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat infratuzilmasini uzoq muddatli moliyalashtirish maqsadida xususiy kompaniyalarni keng ko'lamda jalg qilishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan foydalaniladi. Jahonda hozirgi kunda DXSh faoliyati keng tarqalgan bo'lib, har bir mamlakat uni qo'llanish uslubi va sohalari turli xildir. Davlat va biznes o'tasidagi hamkorlik turli ko'rinishdagi tuzilmalar doirasida har xil vazifalar va vakolatlarga ega bo'lishi mumkin. Davlat ahamiyatidagi va mamlakat barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan munosabatlarni amalga oshirishda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir" [8]. Milliy amaliyotda DXSh amaliyoti rivojlanmaganligi bois mazkur amaliyotning xorij tajribasini o'rganish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining samarali yo'lga qo'yilishi mamlakatdagagi iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshiradi hamda iqtisodiyotning bir qator tarmoqlarini rivojlantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi


Ijtimoiy soha obyektlarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarini tashkil etish masalalarini o'rganishda mantiqiy fikrlash, taqqoslash, tizimli tahlil, statistik tahlil, SWOT tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy loyihalar samaradorligini ta'minlash orqali aholiga qulaylik yaratib berish davlatning funksiyalaridan hisoblanadi. Mazkur jarayonda o'zining ijtimoiy funksiyalarini bajarishida davlat tomonidan davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanish ijtimoiy loyihalar samaradorligini oshiradi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida nafaqat ijtimoiy samaradorlikka erishiladi, balki iqtisodiy va ekologik

jihatdan ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini mayjud. Shu sababli iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasidan qat'iy nazar aksariyat mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarini kengaytirishga harakat qilinmoqda. Quyida

davlat-xususiy sheriklik amaliyotining xususiyatlari hamda milliy amaliyotda mazkur amaliyotni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralarini tahlil qilamiz



1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotining SWOT tahlili [9]

Davlat-xususiy sheriklik amaliyotining SWOT tahlilini amalga oshirish orqali mazkur amaliyotning kuchli va zaif tomonlari, yuzaga keladigan imkoniyatlar hamda xavf-xatarlarni aniqlash imkoniyatini yuzaga keladi (1-rasm). Davlat-xususiy sheriklik amaliyotining mamlakatda rivojlanishi xususiy tadbirkorlar hamda davlatning sheriklik munosabatlarni rivojlantiradi va samarali boshqaruvni yuzaga keltiradi. Xususiy sherikning boshqaruv qobiliyati innovatsiyalardan samarali foydalanishga yordam beradi. Moliyalashtirishdagi sheriklik va davlat tomonidan yaratilgan barqaror siyosiy muhit kelajakda loyihaning samaradorligini oshirishi mumkin. Tomonlar o'rtaida majburiyatlarni taqsimoti, boshqaruvning bo'linishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni boshqarish loyihada inobatga olinishi lozim. Yetarlicha huquqiy bazaning shakllantirilmaganligi, moliya bozorida ishtirok etishning cheklanganligi kabilar turli xavf-xatarni yuzaga keltirishi mumkin.

Milliy amaliyotda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarning huquqiy asoslarini yaratish hamda tashkiliy mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha so'nggi yillarda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagagi "Davlat-xususiy sheriklik loyihamalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 509-sun Qaroriga muvofiq davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim tender yoki to'g'ridan to'g'ri muzokaralar orqali tuzilishi mumkin. Mazkur jarayonda bitimni tuzish tartibi, xususiy sherik hamda davlat oldidagi huquqlar va majburiyatlarni kelishib olinadi. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim muvaffaqiyatlari rasmiylashtirilganligi uchun tender g'olib yoki to'g'ridan to'g'ri muzokara ishtirokchilaridan undiriladigan bir martalik to'lovlarini ham amalga oshiradi (1-jadval).

1-jadval

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim muvaffaqiyatlari rasmiylashtirilganligi uchun tender g'olib yoki to'g'ridan to'g'ri muzokara ishtirokchilaridan undiriladigan bir martalik to'lov miqdorlari [10]

T/r	Davlat-xususiy sheriklik loyihasining qiymati	Bir martalik to'lov miqdori (foizda)
1.	Umumiy qiymati 1 mln AQSh dollaridan 10 mln AQSh dollarigacha bo'lgan loyihamalar uchun	0,2%
2.	Umumiy qiymati 10 mln AQSh dollaridan 100 mln AQSh dollarigacha bo'lgan loyihamalar uchun	0,1%
3.	Umumiy qiymati 100 mln AQSh dollaridan 1 mlrd AQSh dollarigacha bo'lgan loyihamalar uchun	0,05%
4.	Umumiy qiymati 1 mlrd AQSh dollaridan ortiq bo'lgan loyihamalar uchun	0,02%

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim muvaffaqiyatli rasmiylashtirilganligi uchun tender g'olib yoki to'g'ridan to'g'ri muzokara ishtirokchilaridan undiriladigan bir martalik to'lov miqdorlari Umumi qiymati 1 mln. AQSh dollaridan 10 mln. AQSh dollarigacha bo'lgan loyihalar uchun 0,2 foiz, 10

mln. AQSh dollaridan 100 mln. AQSh dollarigacha bo'lgan loyihalar uchun 0,1 foiz, 100 mln. AQSh dollaridan 1 mld. AQSh dollarigacha bo'lgan loyihalar uchun 0,05 foiz hamda 1 mld. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan loyihalar uchun 0,02 foiz belgilangan.

2-jadval

Davlat ijtimoiy soha obyektlari bo'yicha 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar rejasি [11]

T/r	Hududlar nomi	Ijtimoiy soha obyektlari soni, dona
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 554
2.	Andijon viloyati	1 642
3.	Qashqadaryo viloyati	2 090
4.	Namangan viloyati	1 625
5.	Farg'ona viloyati	2 455
6.	Buxoro viloyati	526
7.	Jizzax viloyati	327
8.	Navoiy viloyati	220
9.	Samarqand viloyati	871
10.	Surxondaryo viloyati	556
11.	Sirdaryo viloyati	663
12.	Toshkent viloyati	576
13.	Xorazm viloyati	251
14.	Toshkent shahri	20
Hammasi		13376

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi "Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida" PQ-118-son Qarorida davlat ijtimoiy soha obyektlari bo'yicha 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar rejasи shakllantirilgan (2-jadval). Mazkur Qarorga muvofiq mamlakat bo'yicha ijtimoiy soha

obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish bo'yicha jami 13376 ta shartnomada tuzilishi rejashtirilgan. Hudular kesimida eng ko'p shartnomada Farg'ona viloyatida (2455 dona shartnomada) tuzulishi rejashtirilgan bo'lsa, eng kam shartnomada Toshkent shahriga (20 ta shartnomada) to'g'ri kelgan.

3-jadval

Hududlar kesimida davlat ijtimoiy soha obyektlari bo'yicha 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar rejasи, sohalar kesimida [11]

Nº	Hududlar nomi	Umumta'lim maktablari	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari	Sog'liqni saqlash muassasalari	Madaniyat, musiqa va sport muassasalari
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	758	447	222	127
2.	Andijon viloyati	774	533	268	67
3.	Qashqadaryo viloyati	1 194	417	348	131
4.	Namangan viloyati	716	603	246	60
5.	Farg'ona viloyati	1016	909	401	129
6.	Buxoro viloyati	228	172	97	29
7.	Jizzax viloyati	191	70	45	21
8.	Navoiy viloyati	104	51	55	10
9.	Samarqand viloyati	442	273	100	56
10.	Surxondaryo viloyati	296	145	90	25
11.	Sirdaryo viloyati	308	198	118	39
12.	Toshkent viloyati	318	144	88	26
13.	Xorazm viloyati	114	69	39	29
14.	Toshkent shahri	20	-	-	-
Hammasi		6 479	4 031	2 117	749

Hududlar kesimida davlat ijtimoiy soha obyektlari bo'yicha 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi

bitimlar rejasи sohalar kesimida tahlil qilinsa, mazkur shartnomalar umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim

tashkilotlari, sog'liqni saqlash muassasalari, madaniyat, musiqa va sport muassasalari bilan tuzilishi rejalashtirilgan (3-jadval). Xususan, jami mamlakatimiz bo'yicha eng ko'p shartnomalar umumta'lim maktablari (6479 ta shartnoma) bilan tuzilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, eng kam ko'satkich madaniyat, musiqa va sport muassasalari (749ta shartnoma) bo'yicha ekanligini qayd etish lozim.

Xulosa va takliflar

Ijtimoiy soha obyektlarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarini tashkil etish masalalarini o'rganishda bir qator ilmiy xulosalar va tavsiyalar shakllantirilgan.

1. Turli tarmoqdagi loyihalarni moliyalashtirish, samarali boshqarish, loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish kabi jarayonlarni har doim ham davlat yakka tartibda samarali boshqara olmaydi. Shu boisdan milliy amaliyotda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan samarali foydalanish orqali mazkur amaliyotni kengaytirish zarur;

2. Mamlakatimizda ijtimoiy sohalarda, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar kabi sohalarda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari samarali tashkil etishga e'tibor qaratish lozim;

3. SWOT tahlil orqali ko'rish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari xususiy sektor vakillari uchun jozibadorlikka ega. Mazkur jarayonda xususiy sektor vakillarini qiziqtira oladigan loyihalarni taklif qilish lozim;

4. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) munosabatlarini yaxshilashda hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda loyihalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

5. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) amaliyotining kengayishi davlatning ijtimoiy funksiyalarini xususiy sherik orqali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Shu boisdan davlat mazkur amaliyotni qo'llab-quvvatlash orqali rivojlantirish choralarini va mexanizmlarini ishlab chiqishi zarur.

Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Yawovi Mawussé Isaac Amedanou. Financing the economy in debt times: The crucial role of public-private partnerships. // Research in Economics, Volume 77, Issue 3, September 2023, Pages 295-309
2. James Si Zeng. Competing with Leviathan: Law and government ownership in China's public-private partnership market. // International Review of Law and Economics, Volume 76, December 2023
3. Chandrashekhar Raghutla, Yeliyya Kolati. Public-private partnerships investment in energy as new determinant of renewable energy: The role of political cooperation in China and India. // Energy Reports, Volume 10, November 2023, Pages 3092-3101
4. Mostafa Kazemi, S. Sepehr Tabatabaei, Niki Moslemi. A novel public-private partnership to increase the penetration of energy storage systems in distribution level. // Journal of Energy Storage, Volume 62, June 2023
5. Vladimír Krepl, Ghaeth Fandi, Mohammad Rehabi, Safwan Ghanem, Fayed Jrad, Zdenek Muller, Luboš

Smutka, Jan Kyncl, Melkior Urbanus, Soliman Fandie, Inna Čábelková, Josef Tlustý, Effective criteria in the public-private partnership in developing countries to apply the sustainable development goals: GAN-based decision support system for the renewable electrical system, case study Syria, Heliyon, Volume 9, Issue 11, 2023

6. Элмирзаев С. Э., Шавкатов Н. Ш. Давлат-хусусий шериклик муносабатларининг илгор хориж тажрибалари ва мамлакатимиизда қўллаш истиқболлари. //Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. – 2019. – Т. 3.
7. Botirov PhD A., Omonov S., Turobkhonov S. FEATURES OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PRACTICE //International Finance and Accounting. – 2021. – Т. 2021. – №. 1. – С. 17.
8. Mengnarov A. DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI FAOLIYATIDA XORIJ TAJRIBASI VA UNI OZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLANILISHI //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 3. – С. 149-155.
9. Dat, Le Huu and Bui Thi Phuong Anh. "SWOT ANALYSIS FOR PROPOSING STRATEGIES OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP INFRASTRUCTURE PROJECTS: FROM A DEVELOPING COUNTRY'S PERSPECTIVE." (2020).
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdag'i "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 509-sون Qarori. <https://lex.uz/docs/-5568613>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi "Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida" PQ-118-sон Qarori, 2-ilova. <https://lex.uz/docs/-6427809>.